

## TEXNOLOGIYA FANINING O'QITISHNING KOMPETENSIYAVIY VAZIFALARI

*Bulturova Mo'nixon Tojidinovna*

*Andijon viloyati Oltinko'l tumani 27-maktab Texnologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada texnologiya fanining o'qitishning kompetensiyaviy vazifalari, texnologiya darslarida pedagogik jarayonlarni tashkil qilish, texnologiya darslariga bo'lgan qiziqishlarini o'rganish, texnologiya darslarida zamonaviy texnikalardan foydalanish to'g'risida to'liq fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya fani, pedagogik jarayonlar, kompetensiyaviy vazifalar, texnologik metodlar, ilmiy-metodik materiallar.

**Kirish:** Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarga texnologiya fanini o'qitishda pedagogik mexanizmlarni tashkil qilish, boshqarish, sifat va samaradorligini doimiy takomillashtirishda o'qituvchilarning faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlar va ularni tashkil qilish va boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga, shuningdek ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatleri, shuningdek, qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga uzviy bog'liq bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarga texnologiya fanini o'qitishda pedagogik mexanizmlardan foydalanishga ijobiy munosabat ishonch, tushuntirish va mashqlar kabi usullar orqali erishiladi. Doimiy mashqlar mukammal natijalarga olib keladi va bu odamga quvonch va ko'proq ishlash istagini beradi va yanayam oldinga harakat qilishga undaydi. Shunday qilib, mehnatsevarlik rivojlanadi. Oila juda erta yoshdagi mehnat faoliyati ko'nikmalari va ehtiyojlarini rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega. Texnologiya fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish davrida ustunchalardagi so'zlarni o'qishga o'rgatish bolalarni gaplarni o'qishga tayyorlaydi. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchini texnologik mahoratlarini shakllantirishda turli xil pedagogik mexanizmlardan

foydalanish o'quvchilar faolligini oshiradi. Texnologiya darsida o'quvchilar texnologik mashg'ulot barcha texnologik mahoratlarni tushunmasliklari mumkin, ammo bu jarayonda o'qituvchi uning ma'no va mazmunini tushuntirib berishi kerak.

**Natijalar:** Texnologiya darsida bajargan mashg'ulotning, ayniqsa, pedagogik mexanizmlarda texnologik kompetensiyaviy yondashuv mazmunini tushinishda ifodali o'qish muhim rol o'ynaydi. Odatda, o'quvchilarining texnologik mahorati ularning texnologik ko'nikmasidan farq qilmaydi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida texnologiya fanini o'qitishning ko'chkisimon rivoji natijasida texnologik fan daraxti paydo bo'ldi. Shuning uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarga texnologiya fanini o'rgatuvchi tizim original va noan'anaviy fikrlash qobiliyatini, o'z ustida tizimli va mashaqqat bilan ishlash malakalarini rivojlantirishi lozim. Kompetensiyaviy yondashuv asosida texnologiya fanini o'qitishning, ayniqsa boshlang'ich sinfdanoq o'qitishda pedagogik mexanizmlardan foydalanish insonning intellektini, diqqatini rivojlantirishda, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalashda, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlashda va tafakkurini kengaytirishda muhim o'rin tutadi.

**Muhokama:** Texnologiya fanini nazariylashtirgan tarzda o'qitishga yondashishdan voz kechib, o'quvchilarning kundalik hayotida texnologik bilimlarni tatbiq qila olish salohiyatini rivojlantirish va takomillashtirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e'tiborni kuchaytirish – davr talabi. Texnologik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni, shuningdek texnologik ta'limning amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida texnologiya dars turi, shuningdek uning davomida qo'llaniladigan texnologik metodlar aniq belgilab qo'yiladi. Shu bilan birga dars mavzusini oldingi o'tilgan mavzular bilan hamda fanlararo aloqalarni ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan ishlar rejalashtiriladi va dars rejasini yozishga kirishiladi. Kundalik dars rejasini o'qituvchi

tomonidan har bir darsga alohida yoziladi. Darsning muhim belgilaridan biri ilmiylikdir.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, texnologiya fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, pedagogik mexanizmlar va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan bugungi vaqtda fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida texnologiya fani yutuqlaridan foydalanish jiddiy masalalardan biridir. Pedagogik, kompyuter va axborot texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil qilish, tayyorlash, ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim natijalarining sifatini baholashdan iborat bo'lgan yaxlit tizimda o'z ifodasini topadi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xalimjonov E. Motor moylari, xossalari va ularda bo'ladigan'ozgarishlarni aniqlash //Актуальные вопросы высшего образования–2023. – 2023.

2. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – T. 1. – №. 14. – С. 10-14.

3. Xalilbek o'g'li X. E. ICHKI YONUV DVIGATEL DETALLARINI QURUM BOSISHINI TEKSHIRISH //World scientific research journal. – 2023. – T. 18. – №. 1. – С. 110-115.

4. S.Bekmurodova. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo'llanma. – Toshkent. 2017.

5. Tohirov O'. O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017.